



SOHIBQIRON YULDUZI

Ijtimoiy-tarixiy, ilmiy va ommabop jurnal

СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ

Общественно-исторический, научно-популярный
журнал

OWNER STAR

Socio-historical, scientific and popular magazine

Qarshi-2026



filol.f.prof. Alisher Ro‘ziyev
t.f.f.d dots. Nigora Toshtemirova
t.f.f.d dots. Fatima Tuxtamishva
t.f.f.d dots. Gaybulla Uralov
t.f.f.d dots. Nurali Hazratov
t.f.f.d dots. Mansur Karimov

Manzil: 180100, Qarshi shahri,
Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2-uy.
Telefon: 91.466-80-32
Sayt: www.sohibqiron-yulduzi.uz
E-mail:
sohibqiron-jurnali@mail.ru

Qashqadaryo viloyat matbuot va
axborot boshqarmasida 2012 yil
12 martda 14-076 raqami bilan
ro‘yxatga olingan.

Jurnal yilda 4 marotaba chop etiladi.
Jurnaldan ko‘chirma olinganda
manba qayd etilishi shart.

Nashr indeksi — 4074
ISSN 2181-2845
7-sonli nashr.

Terishga topshirilgan sana
21.04.2026 y.
Nashrga berilgan sana 01.06.2026 y.
Chop etilgan sana
08.06.2026 y.
Bichimi 60x84 1/8. Times
garniturası. Shartlı bosma tabog‘i
9,88. Nashr bosma tabog‘i 9,71.
Adadi 20. Buyurtma №187

Jurnal «Photo Express» ishlab
chiqarish korxonasi bosmaxonasida
chop etildi.

Bosmaxona manzili:

Qarshi shahri Mustaqillik shoh
ko‘chasi, 22-uy.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi rayosatining
2018-yil 29-dekabrda 280/7-sonli
qarori bilan “Tarix” fanlari bo‘yicha
ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.

N.Radjabova. Navoiy viloyatida musiqa va qo‘shiqchilik
san‘ati: yo‘nalishlar, yutuqlar va istiqbol.....95
F.Saidov. Turkiston xalqlariga o‘zbek ma‘rifatparvarlarining
ma‘naviy-taraqqiyotiga qo‘shgan o‘lkan hissasi.....102
D.Sayfiddinov. 2009-yil Zarafshon vohasi viloyatlarida
kichik biznes va sanoat tarmoqlari.....106
Z.Tog‘ayev. Turkiya Respublikasining Adana shahridagi
o‘zbek (Turkistonlik) lar matbuoti. (XX asr 2-yarmi-XXI asr
boshlari.).....114
H.Toshmurodov. Yuksak harbiy san‘at namoyandasi (Amir
Temur tavalludining 690 yilligiga bag‘ishlanadi).....118
U.Xomidjonov. Inson kapitalini rivojlantirish va muvafaqiyat
qozonishda oila ijtimoiy muhitining ahamiyati.....122
A.Xasanov. Buxoro amirligi qushbegi arxiv hujjatlari
tavsifi.....130
Sh.Xoliqov. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida
demografiyaning urbanizatsiya jarayonlariga ta‘siri.....135
M.Турсунова, К.Ғаниев. Шердор мадрасаси тарихи ...142
Ya.X.G‘afforov. Markaziy osiyo mintaqasi davlatlarida yangi
integratsiya jarayonlarining boshlanishi.....150
B.Bobojonov. Siypantosh va xo‘ja ovul ming baraka qoyatosh
tasvirlarida qo‘l izlarining semantikasi va ibtidoiy e‘tiqodlar
bilan bog‘liqligi.....158
M.Dusaliev. Mang‘itlar davrida Buxoro amirligining harbiy
tizim va islohatlar.....163
Sh.Jumayeva. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixini
o‘rganishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining ahamiyati...169
O.M.Xayritdinov. Nomoddiy madaniy merosni saqlashda
ta‘lim tizimining ahamiyati.....175
F.Qanoatova, D.Mavlonova. O‘zbekistonda tadbirkorlik
faoliyatini o‘rganishning zaruriy ahamiyati.....179
Sh.Sulaymanova. Sharof Rashidov mashhur o‘zbek
adibi.....184



Manba va Adabiyotlar:

1. Eshov B. O'zbekistondagi mahalliy boshqaruv tartibi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 352-bet.
2. Sagdullayev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. Toshkent: Akademiya, 2006. 124-bet.
3. Krestovskiy V. V. V gostyakh u bukharskogo emira. SPb., 1887. 104—105-betlar.
4. Logofet D. N. Bukharskoe khanstvo pod russkim protektoratom. SPb., 1911. 242-bet.
5. Zapiski o Bukharskom khanstve (Otchety P. I. Demezona i I. V. Vitkevicha). M.: Nauka, 1983. 71-bet.
6. A. Zamonov. XVIII—XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligida harbiy boshqaruv va qo'shin tuzilishi O'zbekiston tarixi jurnali 8-bet Toshkent – 2014-yil 1-son.
7. Xoliqulov A. B. XIX—XX asr boshlarida Qashqadaryo bekliklari. Tarix fan. nomz. dis. Toshkent: UzMU, 2011. 123-bet.
8. Lunyov B. V. Istoriya Uzbeksitona v istochnikakh (razdel Vamberi A. P. Puteshestviye po Sredney Azii). Toshkent: Fan, 1990. 157-bet.
9. Muhammad Hakimxon To'ra . Muntakhab at-tavariyh / Fors-tojik tilidan tarjima, muqaddima, izohlar va ko'rsatkichlar muallifi Sh. Vohidov. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. 468-bet.
10. Sodiqov H. Amir Temur davridagi xavfsizlik xizmati. Toshkent: Sharq, 2010.

MUQADDAS QADAMJO VA ZIYORATGOHLAR TARIXINI O'RGANISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINING AHAMIYATI

Jumayeva Shoirra Berdiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

E-mail:shairajumayeva@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada xalq og'zaki ijodi namunalari muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarini o'rganishda manba sifatida ahamiyai tahlil etilgan. Asosan, Toshkent viloyati muqaddas qadamjo va ziyoratgohlari misolida mavzu yoritib berilgan. Mavzuni yoritishda muallif tomonidan olib borilgan dala tadqiqotlari materillaridan keng foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Afsona, rivoyat, Toshkent viloyati, muqaddas qadamjo, ziyoratgoh, meros, ziyorat, marosim, yosh avlod, mentalitet, og'zaki tarix, toponimika, asotir, avliyo, tarbiya.



ЗНАЧЕНИЕ ПРИМЕРОВ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ СВЯТОГО СТУПЕНЧАТОГО МЕСТА И МЕСТ

Джумаева Шоира Бердияровна

Чирчикский государственный педагогический университет

E-mail: shairajumayeva@mail.ru

Аннотация: В статье проанализировано значение образцов устного народного творчества как источника при изучении священных мест и места паломничества, В основном тема раскрыта на примере священных мест и святынь Ташкентской области. При освещении темы автор широко использовал материалы полевых исследований.

Ключевые слова: легенда, предание, Ташкентская область, священное место, место паломничества, наследие, паломничество, обряд, молодое поколение, менталитет, устная история, топонимика, миф, авлия, воспитание.

THE IMPORTANCE OF EXAMPLES OF FOLK ORAL CREATION IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE HOLY STEP AND SITES

Jumayeva Shoira Berdiyarovna

Chirchik State Pedagogical University

E-mail:shairajumayeva@mail.ru

Annotation: The article analyzes the significance of samples of oral folk art as a source in the study of sacred pilgrimage sites and shrines. The topic is mainly illustrated through the example of sacred sites and shrines of the Tashkent region. In covering the subject, the author widely used materials from field research.

Keywords: legend, tale, Tashkent region, sacred site, shrine, heritage, pilgrimage, ritual, younger generation, mentality, oral history, toponymy, myth, saint, upbringing.

O‘zbek xalqining milliy ma’naviy merosi va mentalitetida o‘ziga xos o‘rinni egallovchi ziyoratgohlar va ular bilan bog‘liq an’analar ayni paytda insoniyat madaniyatining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Ziyoratgohlar asrlar davomida har bir xalqning tarixi va urf-odatlarini, diniy qarashlari hamda milliy ruhiyatini aks ettirish bilan bir qatorda insoniyat tarixidagi qonli urushlar, tabiiy ofatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ziyoratgohlar milliy va ma’naviy tarixiylik negizidagi ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega e’tiqod markazlaridir.

Ziyoratgohlar tarixiga oid manbalarni bir necha guruhga bo‘lish mumkin: xalq og‘zaki ijodi – afsona, rivoyat va asotirlar, sayohatchilar kundalıkları, arxeologik tatqiqodlar va tavsifiy nashrlar. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixi, ular bilan bog‘liq tasavvurlar, avliyolar va ularning faoliyati to‘g‘risida asrlar davomida avlodlardan avlodlarga meros tarzida o‘tib kelayotgan xalq



og‘zaki ijodi namunalari muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, nafaqat ziyoratgohlar tarixi, balki O‘zbekiston tarixiga oid arablar istilosiga qadar bo‘lgan ijtimoiy-maishiy hayotga doir qo‘lyozma manbalar juda kam. Buning sababi Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida quyidagicha izohlanadi: “Arab xalifaligining sharqiy viloyatlar bo‘yicha noibi Ibn Qutaybaning maxsus buyrug‘i bilan yerli aholining boy yozma merosi va san‘at asarlari har bir shaharning bozor maydoniga yig‘ilib, yoqib yuborilgan” [1].

Xalq og‘zaki ijodi namunali xalq turmush tarziniga yaqin bo‘lib, xalqning o‘tmishi, e‘tiqodi va tasavvurlarini aks ettiruvchi, xalqona qarashlar asosida vujudga kelganligi sababli ham asrlar davomida xalq xotirasida yashab kelmoqda. Shuningdek, mazkur xalqona qarashlar asosida yaratilgan afsona va rivoyatlar muhim etnografik va tarixiy manba vazifasini bajaradi. Chunki xalq orasida tarqalgan rivoyat va afsonalar muayyan ziyoratgohning kimga tegishli ekani, uning muqaddaslik maqomiga erishish sabablari, shu joy bilan bog‘liq karomatlar va mo‘jizalar haqida tasavvurlarni shakllantiradi. Bunday ma‘lumotlar ko‘pincha tarixiy voqelik bilan mifologik qarashlarning uyg‘unlashuvi asosida shakllangan bo‘lib, ular orqali jamiyatning diniy dunyoqarashi, e‘tiqodiy qarashlari va ma‘naviy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi ziyoratgohlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ochib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ko‘plab ziyoratgohlar haqidagi afsona va rivoyatlarda ularning shifobaxsh xususiyatlari, ezgu niyatlarni ro‘yobga chiqaruvchi muqaddas maskan sifatida talqin qilinishi kuzatiladi. Bu esa ziyoratgohlarning nafaqat diniy, balki psixologik va ijtimoiy vazifalarni ham bajarganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, xalq og‘zaki ijodi orqali muqaddas joylarning sakrallashuv jarayonini kuzatish mumkin. Ya‘ni ma‘lum bir tarixiy shaxs, tabiiy ob‘ekt yoki voqea vaqt o‘tishi bilan xalq ongida muqaddaslashtirilib, u bilan bog‘liq turli rivoyatlar yuzaga keladi. Natijada mazkur hudud ziyorat ob‘ektiga aylanib, xalqning ma‘naviy hayotida alohida o‘rin egallay boshlaydi.

Afsona, asotir va rivoyatlar xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bo‘lib, voqelikni anglash, tushunishga qaratilgan tushuncha va tasavvurlari mujassamlashgan voqea va hodisalar badiiy to‘qima asosida hikoya qiladi. Afsonada insonning dunyoqarashi, turmush tarzi, urf-odatlar va tarixiy hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etadi. Jumladan, arablar istilosi natijasida Toshkent vohasiga islom dinining kirib kelishi va mahalliy ziyoratgohlar hamda ziyorat marosimlarining islom aqidalari bilan simbiozi yuz beradi. Ya‘ni, barcha qadamjo va ziyoratgohlar Qur‘oni Karimda nomlari zikr qilingan payg‘ambarlar, sahobalar, xalifalar nomlari bilan bog‘liq holda talqin etila boshlangan. Jumladan, nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo hududida Hazrat Ali nomi bilan bog‘liq



qadamjolar keng tarqalgan bo‘lib, xalqona qarashlarda, afsonalarda mazkur ziyoratgohning vujudga kelishi Hazrati Ali nomi bilan bog‘lanadi. Jumldan, O‘rta Osiyo xalqlari islomning dastlabki davridan boshlab qaerda ot tuyog‘iga o‘xshash o‘nqir-cho‘nqir joylar bo‘lsa, bu izlarni Hazrat Ali Duldilining izi sifatidatalqin etilib, mazkur joy bilan bog‘liq ko‘plab afsonalar yaratilgan. Duldul bilan bog‘liq joylar to‘g‘risida H.Hasanov quyidagi ma‘lumotlarni keltirgan:“Amudaryoning Xorazmga kiraverishida, suvning ikki qirg‘ogida Duldul o‘tlagan degan qoyatoshlar ko‘rinib turadi. Ayni shu nomli qirg‘oqlar Kofirnixon daryosida ham, O‘zbekiston va Tojikiston chegarasiga yaqin Xonaqo qishlog‘i yonida ham bor. Bular afsonaviy uchar Duldul sharafiga atalgan” [2]. Shuni ta’kidlash lozimki, Hazrat Ali va ota Duldul bilan bog‘liq qadamjolarini Osiyo mintaqasi bo‘ylab uchratish mumkin. Masalan, Tojikistonning Hisor tumanidagi Jonbuloq qishlog‘ida ham “Poyi Duldul” deb ataluvchi mozor mavjud bo‘lib, u qishloq aholisining ziyoratgohi hisoblanadi. Hatto Xitoyning g‘arbiy qismidagi Uch Turfonda ham hazrat Alining dulduliga bag‘ishlangan mozor mavjud [3]. Ammo, tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Hazrati Ali Markaziy Osiyo hududiga tashrif buyurmagan. Shuni ta’kidlash joizki, Toshkent viloyatidagi Hazrati Masjid Ali, Axtam Sahoba, Zarkent ota, Payg‘ambar ota, Qadamjo va Ikrima ota kabi ziyoratgohlari bilan bog‘liq afsonalarda keltirilgan shaxslarning yurtimizda bo‘lganligi to‘g‘risida tarixiy ma‘lumotlar mavjud emas.

Rivoyat – nomoddiy madaniy meros namunalaridan biri bo‘lib, asosan og‘zaki xikoya qilinib, ajdodlardan avlodlarga xalq xotirasi orqali o‘tib kelgan. Rivoyatda biror tarixiy voqea, hodisalar badiiy to‘qima vositasida yoritib berilgan. Tuzilishiga ko‘ra hajman qisqa, an’anaviy shaklga ega bo‘lmagan asar hisoblanadi. Rivoyat bilan afsonaning farqli jihati shuki, rivoyatlarda afsonaga nisbatan tarixiylik ustunlikka ega bo‘lsa, afsona esa rivoyatlarga nisbatan fantastik buyoq va diniy elementlarga boy bo‘ladi. Rivoyatlarni mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Tarixiy;
2. toponimik.

Jumladan, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixi bilan bog‘liq afsonaviy qahramonlar, islom dini bilan bog‘liq sahobalar, avliyolar hamda tasavvuf ta’limoti namoyondalari bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarni aks ettirib, axloq va odobning ideal normalarini tashviq etuvchi rivoyatlar tarixiy rivoyatlar hisoblanadi. Zangi ota, Shoabdumalik bobo, Shayx Umar Vali singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir. Tarixiy rivoyatlarni u yoki bu tarixiy shaxs yoki voqealar guvohi bo‘lganlarning, ko‘rgan-bilganlarning esdaliklari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Avliyolar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq



tarixiy rivoyatlar o‘zbek xalqi og‘zaki ijodida keng tarqalgan bo‘lib, ular yoshlar tarbiyasida keng foydalaniladi.

Xalqona qarashlarda avliyolarga nisbatan Allohning do‘stlari, azizlar, karomat sohiblari, mardi xudo, valiyulloh, ahlulloh, mardon, ahli dil, orif, darveshlar singari sifatlar berilgan. Rivoyatda keltirilishicha: “Bir kuni Hazrati Muhammad Mustafo sallallohi alayhi vasallam bunday marhamat qilgan edilar: “Qiyomat kuni gunohkor banda o‘zining fe‘lidan xijil va sharmanda bo‘lib, jannatdan umidini uzgan mahalda Haq taolodan shunday xitob keladi : “Ey bandam, yorug‘ dunyoda falon olim yoki falon orifni tanirmiding?” Banda: “Ha tanir edim”,– deb javob beradi. Shunda Haq taolo: “Jannatga borg‘il, seni unga bag‘ishladim”, – deydi. Bas, Xudoning do‘stlari – oriflari, aziz-avliyolarni tanish, ularga ergashmoq, ulardan bahra olib yashamoq, qiyomatda najot topish uchun sabab bo‘lar ekan”. Xudoning do‘stlariga ko‘ngilda mehr-muhabbat saqlash, ularning qiliqlarini o‘zlashtirmoq, ularning fe‘lu tutumlariga taqlid qilmoq juda fazilatli va foydalidir [4].

Avliyolar bilan bog‘liq qarashlar xalqimizning kundalik turmush tarziga ham chuqur singib ketgan. Jumladan, avliyolar xalq og‘zaki ijodi namunalari va yozma manbalarda mo‘jizalar yaratuvchi, turli kasblar, dehqonchilik va chorvachilik homiysi (piri), insonlar hayotiga ta’sir qiluvchi cheksiz qudrat egasi sifatida tasvirlangan [5].

Muqaddas qadamjo, ziyoratgohlar hamda maqbaralar nomi ularning paydo bo‘lish tarixi to‘g‘risida hikoya qiluvchi rivoyatlar toponomik rivoyatlar hisoblanadi. Jumladan, Toshkent viloyatidagi mashhur Zangi ota ziyoratgohining bunyod etilish tarixi biror yozma manbada to‘liq aks etmagan bo‘lsada, mazkur ziyoratgoh bunyod etilishi bilan bog‘liq rivoyat bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan. Shuningdek, Bekobod tumani Taqachi qishlog‘ida joylashgan o‘rta asrlarga me’morchiligiga oid Qizil mozor ziyoratgohi rivoyatga ko‘ra Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan bunyod etilgan. Mazkur ziyoratgohning kim tomondan va qachon bunyod etilganligini biror yozma manbada aks etmagan [6].

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixi o‘ziga xos, bir-birini takrorlamaydigan afsona va rivoyatlarga boy bo‘lib, asosan, diniy hissiyotlarni shakllantirish hamda yosh avlodni halollik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Muqaddas joylar, yer, suv, hayvonlar, o‘simliklar hamda avliyolar kulti bilan bog‘liq xalqona qarashlar, afsona va rivoyatlar, tabobat sirlari odamlar ongida saqlanib, asosan, og‘zaki holatda saqlanadi va quyidagi yo‘llar bilan avlodlarga uzatiladi:

a) kundalik oilaviy (umumiy) aloqa orqali;



- b) an'anaviy "ustoz-shogird" tizimi orqali;
- c) qadimiy usul, ya'ni o'zaro muloqot va o'rgatish orqali.

Shu bilan birga, qadamjo va ziyoratgohlarning tarixi bilan bog'liq rivoyatlar, afsonalarning har biri ma'lum bir tuman, qishloq hamda mahallalarda yashovchi aholining an'anaviy turmush tarzi hamda diniy tasavvurlarini ifodalovchi manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Har bir hududning tarixini, afsona va rivoyatlarini yaxshi biluvchi kayvoni va oqsoqollari bo'lib, ular an'anaviy qadriyatlarni keyingi avlodlarga yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Afsuski, so'nggi yillarda bunday insonlar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, afsona, asotir va rivoyatlarni yig'ish hamda arxiv fondlarida saqlash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixini aks ettiruvchi, ularning kelib chiqishi, shakllanishi va xalq ongida tutgan o'rnini yorituvchi muhim ma'naviy-tarixiy omil hisoblanadi. Ushbu manbalar orqali nafaqat ziyoratgohlar tarixi, balki xalqning diniy e'tiqodi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari ham tadqiq etiladi. Shu boisdan muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni ilmiy o'rganish jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalarini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ёрматов И. "Илоқ тарихи". – Тошкент. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2005. – Б. 8.
2. Хасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т. 1965. – Б. 27
3. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. Материалы и исследования по археологии. – М.Л.: Наука, 1952. – С. 226
4. Остонакулов И. "Авлиёлар султони", "Туронлик валийлар". – Т.: "Янги аср авлоди", 2004. – Б. 18.
5. Кныш А.К. "Что в имени?" Определение суфизма как эпистемологическая и идеологическая проблема // Суфизм и мусульманская духовная традиция: тексты, институты, идеи и интерпретации. 2015. – С. 165
6. Ашрафхўжаев ва бошқ. Ҳазрати Занги ота ва Соҳибқирон Амир Темур. –Т. "Наврўз", 2017 й. – Б. 16.
7. Jumayeva S.B. Toshkent viloyati ziyoratgohlari: rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari. Monografiya.-Toshkent. "ILM ZIYO ZAKOVAT", 2023 y. 168 bet.